
IJTIMOYIY TARMOQLARDA TARQATILGAN XABARGA MUNOSABAT



Joriy yil 24-mart kuni ijtimoiy tarmoqlar orqali “Qo’shtepada xam “Openbudget” “Hokimbudjet” ga o’zgardi shekilli” sarlavhali tanqidiy xabar e’lon qilindi.

Ushbu holat yuzasidan quyidagilarni ma’lum qilamiz:

Openbudget.uz portali orqali Qo’shtepa tumani bo’yicha 2022 yil 1 fevraldan 22 fevral kuniga qadar fuqarolar tomonidan takliflar kiritilib, nizom talablaridan kelib chiqib, 37 mlrd. 255 mln. 699 ming so’mlik 82 ta tashabbuslar ochiq ovoz berish jarayoniga o’tkazilgan.

Bugungi kunda 82 ta tashabbuslarda fuqarolar ochiq ovoz berish yo’li bilan ixtiyoriy ravishda qatnashmoqdalar va hech qanday cheklovlar o’rnatilmagan.

Shuni alohida takidlash lozimki, Openbudget.uz portali orqali tumanimizdagi mahallalarda uzoq yillardan buyon yig’ilib qolgan muammolarni yechim topish imkoni tug’ildi. Shunday mahallalarda “infratuzulmani yaxshilash” maqsadida yo’l, suv, elektr ta’minotini yaxshilash kabi bir qator muammolar hal qilinmoqda.

Ushbu imkoniyatlar aholiga keng tushuntirilib, mahallalarda targ’ibot ishlari olib borilmoqda.

Qo’shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2022-03-24 15:22:40